

Muhitdinova R.U.

O'zDJTU talabasi

Yuldasheva S.F.

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya. Bugungi tez rivojlanib borayotgan globallashuv zamonda xorijiy tillarni puxta egallagan yosh kadrlarga bo'lган talab kun sayin oshib bormoqda. Bu esa yoshlar orasida rus tiliga qiziquvchilarning ortishiga va chet tillarini o'rganishning keng ommalashuviga zamin bo'lmoqda. Ayniqsa, hozirda rus tilini xorijiy til sifatida har bir talaba bilishi kerak. Ammo talabalar tomonidan xorijiy tillarni o'rganish jarayonida bir qator xatolarga yo'l qo'yilishi yohud ba'zi muammoli vaziyatlarga duch kelinishi sababli ularning yangi o'rganilayotyan tilga bo'lган ishtiyoqining tezda yo'qolib qolishi holati ham uchraydi. Ushbu maqolada rus tilini o'rganish jarayonida tez-tez uchrab turadigan kamchilik va xatolar, xususan, beshta asosiy xatolar haqida fikr yuritiladi va rus tilini o'rganish jarayonida nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida to'xtalib o'tiladi.

Tayanch so'z va birikmalar: grammatik qoidalar, passiv va aktiv so'z boyligi, gapirishdan qo'rqish, til muhiti, ilmiy, rasmiy, badiiy uslublar, tadqiqot, so'zlashuv.

Har bir inson biror ishga qo'l urish orqali ma'lum maqsadga erishishni ko'zlaydi. Shu bilan birga, rus, ingliz, fransuz yoki sharq tillarini o'rganishga kirishgan talabalar ham o'rganish jarayonida bir nechta xatolarga yo'l qo'yishadi va buning natijasida keyinchalik til o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Gap shundaki hozirgi kunda talabalar orasida rus tilini to'liq biladigan yoshlar sanoqli, ular mazkur tilni so'zlashuv jarayonida tushunishi mumkun, ammo xatosiz gaplar tuzib gapirish borasida talabalar juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishadi chunki o'rganuvchi talaba yoshlar mazkur tilni o'rganish orqali bir tomonlama natijaga erishishni ko'zlashadi, ya'ni ular yangi xorijiy til o'rganish orqali Oliy o'quv yurtlariga, rusiyabon guruhlarda ballar pastroq bo'lганligi sababli topshirishni maqsad qilishadi. Bu esa o'rganilayotgan tilga nisbatan yuzaki munosabatni shaklanishiga sabab bo'ladi. O'z o'rnida o'rganilayotgan tilga nisbatan bunday yuzaki munosabat ularning mazkur tilni, undagi o'ziga xos ibora va murakkabliklarni to'liq anglab yetishlariga xalaqit beradi va oqibatda ular ushbu tilni o'rganishdan o'zlari kutganday muvaffaqiyatga erisha olishmaydi. Bu ularning xorijy tillarni o'rganishga bo'lган ishtiyoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ular «bu mening ona tilim emas, bu tilni to'liq bilishim shart emas» degan xulosaga kelishadi. Aslida esa til o'rganish jarayoniga nisbatan bunday qarash mutlaqo xato. Rus tilini o'rganish va o'rganilayotgan tilda ravon gapira olish ushbu tilni o'rganishga jiddiy kirishishni talab etadi. Til o'rganishga yuzaki emas balki jiddiy yondashishgina ushbu tilni, undagi murakkabliklarni to'liq tushunishga va kelajakda

ushbu tilda qiyinchiliklarsiz muloqot qilishga yo'l ochadi. Ammo talabalar keyinchalik rus tilini o'rghanishga majbur bo'lishadi va bu o'rghanish jarayonida mazkur 5 ta xatolarga yo'l qo'yishadi.

Birinchi xato – grammatic qoidalarni o'rghanishga juda ko'p kuch va vaqt sarflash.

Shubhasiz, rus tilida grammatic qoidalarni bilish juda muhim ro'l o'ynaydi, ammo rus tilini umuman bilmaydigan talaba yoshlar uchun bu rus tilini tez va oson o'rghanishning samarali usullariga kirmaydi. Chunki grammatic qoidalarni eslab qolish va mantiqan qo'llash juda murakkab, so'zlashuv esa juda tezkor jarayon hisoblanadi. So'zlashuv jarayonida esa yuzlab o'rghanilgan grammatic qoidalarni eslab qolib, uni tahlil qilib undan keyin muloqotda qo'llash juda qiyin va haddan tashqari ko'p kuch va vaqt sarflanadi. Shuning uchun eng samarali usul bu grammatic qoidalarni qiziqarli usulda o'rghanish ya'ni rus tilini o'rghanayotgan talabalar qiziqarli, tushunarli bo'lgan filmlarni ko'rish, audiokitoblarni eshitish, qiziqarli grammatic videolarni ko'rish orqali grammatic qoidalarni ham samarali, ham tez o'rghanishga muvofiq bo'lishadi.

Ikkinci xato – rus tilini ilmiy, badiiy usullarda o'rghanish.

Har qanday til markazlari talabalarni rus tilini yoki har qanday xorijiy tilni ilmiy, rasmiy va badiiy usullarda o'rgatishadi. Bu usullarda rus tilini o'rghanish juda samarali emas chunki so'zlashuv jarayonida talabalar bu usullardan foydalanishmaydi.

Uchinchi xato – rus tilini o'rghanayotgan talabalar ushbu tilni o'rghanish va qo'llash jarayonida xato gapirib qo'yishdan qo'rqish. Albatta til o'rghanish jarayonida xato qilishdan qochish yoki qo'rqish muloqot jarayonida xatosiz, grammatic qoidalarga muvofiq gapirishga olib keladi, biroq bu jarayon til o'rghanishni sustlashishiga, sekinlashishiga va o'rganuvchi talabaning bora-bora bu tilda gapirish ko'nikmasining to'liq rivojlantirishida qiyinchiliklarga uchrashiga olib kelishi mumkin. Odatda til o'rganuvchi o'rghanayotgan tillarida suhbatlashish jarayonida grammatic me'yorlarda xato qilishdan qochishga urinishi bilan chalg'ib gapirilayotgan fikrning mazmunini majhullashishiga sabab bo'ladi. Bu esa tinglovchining fikrni to'liq anglab yetolmasligiga olib keladi. Shuni unutmaslik kerakki har qanday yangi boshlangan ishda xato va kamchiliklar bo'lishi bu tabiiy hol. Yangi til o'rganuvchilarning nutqidagi talaffuz buzilishlari va grammatic xatoliklar doimiy o'z ustida ishslash va mazkur tilda gapirish amaliyotini oshirish orqali o'z yechimini topadi.

To'rtinchi xato – cheklangan o'quv muhiti.

Cheklangan o'quv muhiti deganda, auditoriyalarda mebel mavjudligi yoki o'quv dargohining joylashuvi nazarda tutilmagan. Talabalarning atrofida rus tilida doimiy ravishda muloqot qiluvchilar yetishmovchiligi ham mavjud. Chunki hozirda aksariyat Oliy o'quv yurtlarda o'zbek guruhlar ko'p va buning natijasida rus tilini o'rghanayotgan talabaga rus tilida muloqot yetishmaydi va rus tilini o'rghanish qiyinlashadi. O'quv materiallari, xususan kitoblar, audiomateriallar o'quv jarayonida yordam beruvchi vositalar hisoblanadi. Agar talaba o'rghanilayotgan til yuzasidan berilgan topshiriqlarni

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

audio va video orqali kuzatib borsa, so‘zlar va jumlalarni qanday talaffuz qilishni o‘rganadi.

Beshinchi xato – aktiv va passiv so‘z boyligi nima ekanligini bilmaslik.

Inson biladigan har qanday tildagi (o‘z ona tilida ham, xorijiy tilda ham) so‘z boyligi ikki turga bo‘linadi: passiv va aktiv. Passiv so‘z boyligi — bu biror tildagi so‘z ma’nosini biladigan, lekin amalda (so‘zlashishda va yozishda) kam qo‘llaydigan yoki umuman qo‘llay olmaydigan so‘zlar. Aktiv so‘z boyligi esa — bu shu tildagi kundalik hayotda (so‘zlashishda) va yozishda bemalol qo‘llay oladigan so‘zlar. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, passiv so‘zlar — bu o‘qish va eshitishda (reading and listening) tushuna oladigan so‘zlar bo‘lsa, aktiv so‘zlar yozish va so‘zlashishdagi (writing and speaking) so‘z boyligidir. Rus tilini o‘rganayotgan talabalar ko‘p hollarda “eshitaman va buni tushunyapman, shu ham menga yetarli” deb o‘ylashadi. Vaholanki, ular bu holatda rus tilidagi so‘zlarni o‘rganmaydilar va passiv so‘z boyligida qotib qoladilar. Har kuni yangi so‘zni o‘z lug’atiga qo‘sib boradigan va kundalik hayotda qo‘llay oladigan talabalar esa aktiv so‘z boyligiga ega bo‘lib boradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Методика преподавания иностранных языков зарубежом. Москва, «Прогресс» 1967.
2. T. Robins «Maqsadga qanday erishiladi» 2013. 3.Z.Po'latova. «Xorijiy tillarni o'rganishdagi muammolar». Maqola.
3. O'rta maktabda chet tillari madaniyatini kommunikativ o'qitish konsepsiysi / S. S. Artemyeva va boshqalar: Ed. E. I. Passova, V. B. Tsarkova. — Moskva: Ta'lim, 1993. — 127 b.